

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллаҳжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Dilnoza Ganiyevna Atadjanova JANUBIY XORAZM VOHASIGA QADIMGI AHOLI MIGRATSIYASI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI.....	5
2. Anora Zayniddinovna Tog‘aeva TARIXIY ADABIYOTLARDA TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO ALOQALARI XUSUSIDA.....	12
3. Sayfiddin Muxitdinovich Anarkulov SHAHAR MUHITIGA IJTIMOIIY-IQTISODIY MOSLASHUV JARAYONLARINING ANTROPOLOGIK TAHLILI.....	19
4. G‘ulom Masharipovich Djumamuratov, Muslima Maxmudovna Bazarova MARKAZIY OSIYO HUDUDI BO‘YLAB O‘ZBEK URUG‘LARINING JOYLASHUVI MANBALARDA.....	27
5. Farxodjon Odiljonovich Ismatullayev O‘ZBEKISTON–YEVROPA ITTIFOQI HAMKORLIGINING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	32
6. Нигора Рахимджанова ЖАДИД НОШИРЧИЛИГИНИНГ МАНБАШУНОСЛИГИ.....	40
7. Axmedjon Shonazarovich Yusupov ILK SAK QABILALARI MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	49
8. Amirbek Tag‘bayev B.X. KARMISHEVA ASARLARIDA ANTROPONIMLAR MASALASI.....	55
9. Nodira Nabiyevna Safixodjayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA “MEHRIBONLIK” UYLARIDA YARATILGAN MODDIY- TEXNIK SHAROITLAR.....	61
10. Ozodaxon Botirjon qizi Abdunosirova, Ruxshona Akramjon qizi Abduvoidova UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ME’MORCHILIK TARAQQIYOTI...69	69
11. Gulom Masharipovich Djumamuratov O‘ZBEK URUG‘LARI TARKIBIDAGI OROL O‘ZBEKLARI TAHLILI.....	74
12. Rabiyaon Mansurbekovna Ibragimova DING‘ILDJA DEHQONCHILIK VOHASI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARINING TARIXIY TAHLILI.....	80



Rabiyajon Mansurbekovna Ibragimova,
 Abu Rayhon Beruniy nomidagi
 Urganch davlat universiteti
 mustaqil izlanuvchisi

DING‘ILDJA DEHQONCHILIK VOHASI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARINING TARIXIY TAHLILI

For citation: Rabiyajon M. Ibragimova. HISTORICAL ANALYSIS OF THE GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE DING‘ILDJA AGRICULTURAL OASIS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 6.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807324>

ANNOTATSIYA

Maqolada Amudaryo o‘ng sohili hududida Qizilqum sahrosi ta’sirida shakllangan Ding‘ildja vohasining geografik xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu tarixiy yodgorlik manzilida olib borilgan arxeologik izlanishlarning ayrim jihatlari ochib berilgan va ilmiy xulosalar chiqarilgan. Ding‘ildja dehqonchilik vohasi qadimgi insonning arid zonalarida tabiat inijliklariga moslashib, irrigatsiya orqali yuqori agromadaniyat yaratganining yorqin geografik va tarixiy namunasi ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Vinogradova Ye.A., Kes A.S., Andrianov B.V, Tolstov S.P., Xorazm, Qoraqum, Qizilqum, Sulton Uvays, Sho‘raxon, Burli-3, Ding‘ildja.

Рабияжон Мансурбековна Ибрагимова,
 независимый исследователь в
 Ургенчском государственном университете
 имени Абу Райхона Беруни

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ОАЗИСА ДИНГИЛЬДЖА

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются географические особенности оазиса Дингильджа, сформировавшегося под влиянием пустыни Кызылкум на правом берегу реки Амударья. Раскрываются некоторые аспекты археологических исследований, проведенных на этом историческом памятнике, и делаются научные выводы. Сельскохозяйственный оазис Дингильджа является ярким географическим и историческим примером того, как древние люди адаптировались к капризам природы в засушливых зонах и создали развитую сельскохозяйственную культуру благодаря ирригации.

Ключевые слова: Виноградова Е.А., Кесь А.С., Андрианов Б.В., Толстов С.П., Хорезм, Каракум, Кызылкум, Султан Увайс, Шурахон, Бурлы-3, Дингильжа.

Rabiyajon M. Ibragimova,

independent researcher at

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

HISTORICAL ANALYSIS OF THE GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE DING'ILDJA AGRICULTURAL OASIS

ABSTRACT

This article analyzes the geographic features of the Dingilja oasis, formed under the influence of the Kyzylkum Desert on the right bank of the Amu Darya River. It explores some aspects of the archaeological research conducted at this historical site and draws scientific conclusions. The Dingildja agricultural oasis is a vivid geographical and historical example of how ancient humans adapted to the vagaries of nature in arid zones and created a high agricultural culture through irrigation.

Index Terms: Vinogradova E.A., Kes A.S., Andrianov B.V., Tolstov S.P., Khorezm, Karakum, Kyzylkum, Sultan Uvays, Shurahon, Burly-3, Dingilzha.

Kirish:

O'zbekiston Respublikasi fizik-geografik xaritasida aks etgan manzara tog'li va tekisliklardan iborat bo'lgan tarixiy-geografik hududlardan tashkil topadi. Mana shu tarixiy-geografik hududlarning geologik asosi yaxlit bo'lsa ham, ularning geomorfologiyasida farqlanishni kuzatishi mumkin. Shu ma'noda aholining joylashishi bir-birini takror qilmaydi. Har bir geoiqtisodiy hududlar, tabiiy resurslari, suv ta'minoti masalalari, iqlim sharoiti, aholining joylashishi bir-birini to'ldiruvchi asoslarga ega bo'lib, bu holatlar tog'li va tekislik hududlarida birdek ko'zga tashlanadi. Mana shunday geoiqtisodiy makonlardan biri Vatanimiz shimoli-g'arbida Qoraqum va Qizilqum oralig'ida joylashgan Xorazm tekisligi hisoblanadi. Mazkur maqolada mil.avv. VI asr so'nggi choragi va V asrda aholining madaniy-xo'jalik markazlarining vujudga kelishi, shakllanish va rivojlanish tarixini Ding'ildja qishlog'i (arxeologik yodgorligi) misolida dehqonchilik voxasini yoritish maqsad qilingan.

Ding'ildja qadimgi Xorazmning o'ng qirg'og'ida (hozirgi Qoraqalpog'istonning To'rtko'l tumani hududida) joylashgan, miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalariga (arxaik davrga, xususan miloddan avvalgi V asrga) oid yirik tarixiy-geografik dehqonchilik maskanidir. Bu voha ilk bor taniqli arxeolog M.G. Vorobeva tomonidan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi doirasida batafsil o'rganilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Ma'lumki, Xorazm vohasi uziga xos tarixiy-geografik hudud bo'lib, O'zbekistonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. Hududda kechgan etnik jarayonlar tosh davri so'nggi bosqichida (Burli-3) yuz bergan [1., -B.74-77]. Bundan 22 ming yillikda Amudaryo tekisligi o'ng va so'l hududlarga ajratgan. [2., -B.19].

S.P. Tolstovning tadqiqotida qayd qilinishicha, Golotsen davrida o'ng sohil hududi – Sho'raxon-Sulton Uvays oralig'i ekin-tekinchilikka qulay 150 ming gektar yerni qamrab olgan [3., -B.98]. Mi.avv. V asr boshida Kaltaminor sug'orilish inshooti Amudaryodan shimoliy tomon yo'naltirilishi munosabati bilan qishloq maqomiga ega bo'lgan Ding'ildja yodgorligi kelib chiqib, bunyod etilgan [4., -B.5-19]. M.G.Vorobeva Ding'ildja materiallari asosida qadimgi davrda binokorlik uslubi, me'morchiligi bilimi xunarmandchilik soxalari rivoji masalalarini o'z asarlarida yoritib bergan [5., -B.70-80].

Ding'ildja manzilgohi Amudaryoning quyi oqimidagi tabiiy tarmoqlar va delta tizimlari asosida shakllangan. Bu hududda daryo suvining tabiiy toshishi va loyqa cho'kindilari (allyuvial yotqiziqlar) tuproq unumdorligini ta'minlagan. Hudud Qizilqum sahrosi bilan chegaradosh bo'lib, keskin kontinental va quruq (arid) iqlimga ega bo'lgan. Biroq, suv manbalarining mavjudligi sahro bag'rida dehqonchilik qilish imkonini beruvchi yashil voha yaratilishiga xizmat qilgan.

Ding'ildja yodgorligi uy-xonalaridan (jami 27 ga) olingan sopol ashyolari, temirdan ishlangan mehnat qurollari, kamon o'qlari to'g'risida ma'lumotlar X.X.Matyaqubovning tadqiqotlari orqali bilib olishimiz mumkin[6., -B 48-49].

Shuning bilan birga, M.G. Vorobevaning «Дингильдже. Усадьба середины I тысячелетия до н.э. в Древнем Хорезме» (1973 y.) nomli fundamental monografiyasi hanuzgacha Markaziy Osiyoda ilk temir davri va antik davr o'rtasidagi o'tish bosqichini, sinfiy jamiyat va davlatchilik ildizlarini o'rganishda eng asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagilar izohlandi:

Ilmiy maqolani tayyorlash davomida ob'ektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyyosiy tahlil, munozara, asoslash, umumlashtirish, yakuniy xulosa kabi metodlar va yondashuvlar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar:

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi hamda zamonaviy tadqiqotlarda aks etgan tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirgan holda vujudga kelgan yangicha g'oyalar va yondoshuvlar asosida. Hozirgi To'rtko'l, Beruniy va Ellikqal'a tumanlari hududining mil.avv-gi VI asr so'nggi choragi va V asrlarda aholi tomonidan olib borilgan bunyodkorlik ishlari natijalari, Oqchadaryo irmog'i quyi havzasida Qizilqum chegarasi g'arbiy hududlarda tarkib topgan Ding'ildja vohasining vujudga kelishi, shakllanishi hamda Temir davri so'nggi bosqichida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy rivojlanishida tarixiy o'rni tahlil qilindi, shu ma'nolardan kelib chiqib, quyidagi natijalar qayd qilindi:

O'troq ziroatkor aholi Amudaryoning yo'nalishini bir tizimga solish maqsadida chiqarilgan Kaltaminor sug'orilish inshooti Sulton Uvays tog'i sharqiga qarab yunaltilgan. Uning quyi havzasining oxirgi qismi Qizilqum balandligi chegarasida o'troq aholi tomonidan Ding'ildja yodgorligi barpo qilingan.

Mil.avv. V asr oxirida Qizilqum atrofida mineral moddalarni qamrab sernam va serunum tekislikni qamrab olgan qishloq tipidagi dehqonchilik vohasi tarkib topgan. Yodgorlik aholisi xunarmandchilik, uy chorvachiligi, tevarak-atroflarni o'zlashtirib, qishloq xo'jaligining nozik sohalaridan biri uzumchilik faoliyati va bilimni rivojlantirganlar, tevarak-atroflarga mazkur bilimning tarqatish markaziga aylangan.

Vohaning asosiy geografik yadrosini ko'plab xonadonlar va xo'jalik binolaridan iborat bo'lgan bitta yirik kompleks (usadba) tashkil etgan. Bu majmua ham yashash joyi, ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash markazi bo'lgan. Geografik jihatdan usadbaning tashqi devorlari mustahkamlangan bo'lib, bu atrofdagi ko'chmanchi qabilalar xavfidan va kuchli sahro shamollaridan (qum ko'chishlaridan) himoyalaniish imkonini bergan.

Ding'ildjadan topilgan sopol idishlar ushbu davr uchun xos bo'lgan "Yaz-II" va "Yaz-III" tipidagi silindro-konik va bochkasimon shakllarga ega. Janubiy Baqtriya va Marg'iyona madaniyati bilan yaqin aloqalarni ko'rsatuvchi ushbu sopollarning bir qismi qo'lda, asosiy qismi esa kulolchilik charxida yasaliib, sifatli xumdonlarda pishirilgan[7].

Vohada bronzadan yasalgan paykonlar (kamon o'qlari), pichoqlar, ayollar taqinchoqlari, shuningdek, don yanchish uchun ishlatiladigan tosh yonchiqlar (zernoterki) ko'plab topilgan.

Xulosa va takliflar:

Mavzu mazmun-mohiyatini qamrab olgan axborotlar geografiyasini e'tiborga olib, quyidagi xulosani qayd qilish mumkin:

1. Xorazm voxasi paleotektonik harakatlar natijasida tekislik bo'lib, O'zbekiston huududi tekisliklar maydonini bir qismini qamrab oladi.

2. Amudaryo asrlardan asrlar mobaynida suv tarkibidagi loyqa qatlamlarini yotqizilganligi bois, sernam va serunum tekislik bo'lgan, uning geomorfologik tasvirini Ding'ildja yodgorlik aks ettirgan.

3. Ding'ildja hajmi jihatidan kichik qishloq maqomiga ega bo'lgan antik davrda ziroatkor aholi jamiyatning barcha soxalarini yuksak darajada rivojlantirgan, degan xulosaga kelish imkoni bo'lgan.

4. Ding'ildja vohasining tarixiy inqiroziga asosan tabiiy-geografik omil — Amudaryo o'zanlarining va delta tarmoqlarining boshqa tomonga surilishi sabab bo'lgan. Suv manbasining kamayishi natijasida voha atrofidagi peski (qumliklar) ilgarilab, ekin maydonlarini qamrab olgan va aholining bu hududlarni tashlab ketishiga majbur qilgan.

Umuman olganda Ding'ildja dehqonchilik vohasi qadimgi insonning arid zonalarida tabiat injiqliklariga moslashib, irrigatsiya orqali yuqori agromadaniyat yaratganining yorqin geografik va tarixiy namunasidir. Shu ma'nodan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Amudaryoning antik davrdagi suv yo'nalishlari harakatini turli yozma manbalar va paleogeografik ash'yolar orqali o'rganish;
- Kaltaminor sug'orilish inshooti tarixi, uning rivojlanish bosqichlari va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyatini kengroq tahlil etish;
- Qadimgi davrda shakllangan va o'ziga xos ho'jalik-madaniy munosabatlarini jamlagan Ding'ildja yodgorligi tarixini chuqurroq tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге-М:ИВЛ 1998.
2. Кесь А.С. Аральское море в Голоцене // Этнография и археология-М:Наука, 1979.
3. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксрта-М:Наука, 1962.
4. Андрианов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья-1969.
5. Воробьева М.Г. Дингильдже. Усадьба I тысячелетия до.н.э в Древнем Хорезме-М:Наука 1973.
6. Матякубов Х.Х. Хоразм воҳаси бронза даври асри ва илк Темир даври тарихи-Тошкент, 2014.
7. OPINIONS ON THE PECULIARITIES OF THE WRITING OF THE KHOREZM OASIS IN THE PERIOD OF ANTIQUITY // <https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-04-04-09>

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000